

“ILK QADAM” DAVLAT O‘QUV DASTURI ASOSIDA BOLALAR MEHNATINI TASHKIL ETISHDA FOYDALANILADIGAN DIDAKTIKA MAZMUNI

Asadova Feruza

*Baxmal pedagogika kolleji
maktabgacha ta'lim o'qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi asosida bolalar mehnatini tashkil etishda foydalaniladigan didaktik vositalar mazmuni haqida fikr va mulohazalar yoritilgan.

Kalit so‘zlar. Maktabgacha ta'lim ,mehnat , maktabgacha yosh,ta'lim, tarbiya vosita didaktika

KIRISH. Hozirgi kunga qadar mamlakatimizda har tomonlama yetuk, ma'naviyatli barkamol avlodni tarbiyalashga qaratilgan zamonaviy maktabgacha ta'lim tashkilotini tashkil qilish bo'yicha juda ko'p chora tadbirlar amalga oshirilib kelmoqda.Xususan: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan 2017 yil 9 -sentabrda qabul qilingan PQ-3261-sonli Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora–tadbirlari to'g'risidagi qarorida “Maktabgacha yoshdagi bolaga singdirilgan bilim va qadriyatlar uning butun kelgusidagi hayotini belgilab berishi sababli maktabgacha ta'lim uyg'un rivojlangan shaxsni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega” ekanligi aytib o'tilgan.¹

ADABIYOTLAR TAHLILI. Taqdqiqot mobaynida mamlakatimizda ta'lim tarbiya sohasida ish olib borgan olimlari Z.Nishonova, F.Qodirova, Vigotskiy, Yashina va Nurmatova M.Sh. Xasanova Sh boshqalar o'z ilmiy –tadqiqot ishlarida shu yo'nalish bo'yicha katta xizmatlaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo'ldik.Maktabgacha yoshdagi bolalarda mehnat tarbiyasini shakllantirish ham muhim vazifalardan hisoblanadi.Hozirgi kunda shoir va yozuvchilarimiz tomonidan mehnat tarbiyasiga katta e'tibor berilib mehnatsevarlikni ulug'laydigan va dangasalikni qoralaydigan hikoya va sh'erlar ko'plab yozilmoqda. “Ilk qadam” dasturida bolalarning va tarbiyachi pedagoglarning erkin ijodiy faoliyatiga keng yo'l ochilganligini ta'kidlashimiz lozim. Rang barang faoliyatlar davomida bola ongli ravishda shakllanishini inobatga olgan holatda hamda ularning kayfiyatlari hamda qiziqishlari tez-tez o'zgarib turishini hisobga olib aynan ushbu “Ilk qadam” o'quv

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan 2017 yil 9- sentabrda qabul qilingan PQ-3261-sonli.

dasturida rejalashtirilgan ta'lim faoliyatalari integratsiyalashgan o'quv jarayonlari bugungi kun bolalarining barcha ehtiyoj va bilishga bo'lgan chanqoqliklarini qondirishda ahamiyatlidir. Maktabgacha yoshdagi bolalar mehnatini tashkil etishda 'Ilk qadam o'quv dasturining ta'limiy asoslari² haqida fikr yuritadigan bo'lsak dasturining ta'limiy jarayonni mavzuviy rejalashtirish deb nomlangan ilovasida barcha faoliyat turlari bilan bir qatorda mehnat faoliyatiga ham alohida o'rin berilgan bo'lib kun tartibining sayr qisminig tarkibida tabiatdagi kuzatuv jarayonidan keyin amlaga oshiriladi. Bizga ma'lumki bolalar mehnatini tashkil etishda o'z-o'ziga xizmat mehnati alohida ahamiyatli bo'lib, bunda tarbiyachi rahbarligida bolalar o'zlarining kiyimlarini kiyib yechish, shkafga tartib bilan ilib qo'yish, mashg'ulotda esa o'z qalamini archishi, kerakli jihozlarni rivojlantiruvchi faollik markazlardan topib ishlatishi va boshqa harakatlar kiradi. Bolalar uchun aslida har bir faoliyat mehnat hisoblanadi. Tarbiyachi pedagogning vazifasi esa har bir tarbiyalanuvchida mehnat tarbiyasini tarkib toptirishdan iborat bo'lib buni kun davomida izchil ravishda amalga oshirib boradi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida barcha mehnat turlarini o'rgatish muhim hisoblanadi. Shu jumladan tabiatdagi mehnat bolalarning har tomonlama rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo'lib o'simlik va hayvonlar, yil yil fasllari va jonsiz tabiat to'g'risidagi bilimlar manbai, bolalarda mehnatsevarlikni, tabiatga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish ruhida tarbiyalash vositasidir. Shu bilan birga bolalar mehnatning bu turi bilan tuproqni yoqishga tarbiyalash va o'g'itlash, ko'chatni o'tkazish, o'simlik va hayvonlarni parvarish qilish kabi bir qancha mehnat malaka va ko'nikmalarini egallab oladilar. Mehnatning asosan ochiq havoda tashkil etilishi bolalar organizmini chiniqtiradi, ularning sog'ligini mustahkamlaydi. Mehnat tarbiyasi, avvalo, oilada bola o'zini anglay boshlashi bilanoq amalga oshirila boradi. Shunday qilinmasa, bola faqat iste'molchiga aylanib qoladi va natijada u dangasa, ishyoqmasgina emas, ma'naviyati kemptik shaxs ham bo'lib shakllanishi mumkin. Tarbiyachi mashg'ulotlar davomida bolalarga insonning faoliyati tufayli mehnat predmetlari mahsulotga aylanishi haqida ma'lumotlar berib borishi va kattalar mehnati bilan tanishrib borishi lozim. Ular ongiga mehnatning vazifasi ahamiyati va hayotning muhim sharti ekanligi hamda mehnat odamni hayvondan farqlantiradigan eng muhim belgisi sifatida tushuncha berib borishi kerak. Tarbiyachi bolalarga mehnat jarayonida insonlar tabiatni ham o'z maqsadiga ko'ra bo'ysundirishini cho'llarning bo'stonga aylanib borayotganligi misolida tushuntirib, yetkazib bera olish lozim.

² Takomillashtirilgan Ilk qadam davlat o'quv dasturi 2022-yil 4-fevraldagi 1-sonli bayonnom

O‘zbekiston vatanimiz rivojlanishi taraqqiy etishida bolalarni mehnatsevar va kattalar mehnatiga hurmat munosabatida bo‘lishga o‘rgatish bilan masalasi borgan sari chuqurlashib borishi ma’lum bo‘lmoqda. MTT pedagoglaridan hozirgi kunda mehnatning yangi turlari yuzaga kelayotganligini, ular mustaqil vazifaga ega ekanligini mashg‘ulotlar davomida ongiga singdirib borishi talab etiladi. bo‘ladi. Mehnatdagi ixtisoslashuv tufayli tabiat sirlari chuqur o‘rganiladi, tabiiy narsalar to‘laroq ishlatiladi, hatto, ularniig xossalari o‘zgartiriladi. Bolalarda mehnatni tashkil etishda avvalo mehnat tarbiyasi turlarini o‘rgatish muhim hisoblanadi. Mehnat tarbiyasi berish mobaynida ijodiy ishlarga yo‘naltirish jarayonlarining ham o‘rni katta. Chunki bu jarayonlarda bolalar bevosita tegishli mehnat ko‘nikmalarini egallash va ularni mustaqil ravishda qo‘llash bosqichini o‘taydilar. Shuningdek, ular bu asnoda qaysi bir mehnat yo‘nalishi o‘ziga muvofiqroq ekanligini bilib oladilar. Shuning uchun ham mehnat ta’limi imkon qadar xilma-xil bo‘lishi hamda bolalalarning aqliy, jismoniy imkoniyatlari muvofiq kelishi zarur. Mehnat tarbiyasi–bolalarga mehnatning mohiyatini chuqur anglatish, ularda mehnatga ongli munosabat, shuningdek muayyan ijtimoiy foydali harakat ko‘nikma va malakalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan pedagogik faoliyat jarayoni bo‘lib, ijtimoiy tarbiyaning tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Bolalarda mehnatga ongli munosabatni shakllantirish, shuningdek mehnat orqali bolani har tomonlama rivojlantirish, ma’naviy –axloqiy fazilatlarini tarkib toptirish, kelajakdagi mehnat faoliyatiga ruhiy jihatdan tayyorlash, ularda mehnat qilish xohishini singdirish ham alohida ahamiyatga ega.

Xulosa. Yosh avlodda mehnat tarbiyasini qaror toptirish va ularni zamonaviy ishlab chiqarishning tirli sohalarida faoliyat yuritishga tayyorlash, tarbiyalanuvchilarda mehnat istagini jamiyat manfaatlari yo‘lida mehnat qilishga ehtiyojni hosil qilish, bolalarni o‘zlarini mehnatga o‘rgatish. Maktabgacha yoshdagi bollarning rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari asosida ishlab chiqilgan. “Ilk qadam” o‘quv dasturida mehnat tarbiyasiga alohida urg‘u berilgan bo‘lib tarbiyachining ish jurnalida mehnat qismini yuritishda mehnat tarbiyasini shakllantirish vazifalari amalga oshiriladi. Bolalarga mehnat faoliyatining asosiy tarkibiy qismlari bilan tanishtirish, mehnatning maqsadi uning ijtimoiy ahamiyatini tushuntirish, mehnat materiallarini tanlashga o‘rgatish ketma ket amalga oshiriladi.

ADABIYOTLAR

1. Takomillashtirilgan Ilk qadam davlat o‘quv dasturi 2022-yil 4-fevraldagi 1-sonli bayonnomasi

2. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent, O'zbekiston, 2017 yil, 488 bet.
3. D.Q. Asqarova "Bolalalarni maktab ta'limiga tayyorlash metodikasi" o'quv qo'llanma Toshkent-2020 11-b
4. Egamberdieva N. Ijtimoiy pedagogika. Toshkent: A.Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009.
5. Qodirova F., Toshpo'latova Sh., A'zamova M. Maktabgacha pedagogika. Toshkent: "Ma'naviyat", 2013

"Innovations in Science and
Technologies"